

22. Юдин В.М. и др. Новое положение в племенной работе с каракульской породой овец: Труды МВА. 1961. Т. 30. С. 104-107.

UDK: 636.933.2.

Qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarining tirik vazni va uning yosh dinamikasida o'zgarishi

R.U.Turganbaev-ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari, q.x.f.d., professor, turganbaev19643@mail.ru

A.F.Astankulov-tayanch doktorant, pro100azik90@mail.ru

Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq zot tipiga mansub qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarining variatsiyalar kesimida tirik vazni yoshi dinamikasida (Tug'ilganda, 4-4,5 oylik, 12 oylik va 18 oylik) o'zgarishi keltirilgan va tirik vazni o'zgarishi bo'yicha xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar. Qoraqalpoq zot tipi, yosh dinamikasi, tirik vazni, eksterer ko'rsatkichlari, uzunoyoqlilik, suyakdorlik, cho'ziluvchanlik, massivlik.

Summary. The article presents and draws conclusions on the change in live weight in age dynamics (at birth, 4-4.5 months, 12 months, 18 months) in Karakul sheep of the color of Kamar of the Karakalpak breed type.

Key words. Karakalpak breed type, age dynamics, live weight, exterior indicators, overgrowth, boneiness, extension, massiveness.

Kirish. Mustaqil O'zbekiston Respublikamizda bugungi kunda qorako'l qo'ylarini urchitish ishlari va shu bilan bir qatorda qorako'lchilik mahsulotlari (teri, go'sht, jun va sut) ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirish va sifatini yaxshilash borasida keng miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada sur rangli qorako'l qo'ylarining irsiy salohiyatidan foydalangan holda, tarmoqda yuqori iqtisodiy rentabellikka erishilmoqda.

Har xil konstitutsiya tipiga mansub qorako'l qo'ylari, vujudga kelgan iqlim va yaylov ozuqa sharoitidan turlicha tasirlanadi [1].

Yangi tug'ilgan qo'zilarining tirik vazni asosiy o'sib-rivojlanishni belgilaydigan xususiyatlari bo'lib, kelajakdagi muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Tirik vazn ko'rsatkichi qorako'l terilar tovarlik sifati bilan bog'liqdir va bu ko'rsatkich terining sathi, og'irligi, qalinligi, jun tolasi uzunligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini aniqlagan [2]; [3].

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpoq tipiga mansub qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarining tana tuzilishi indeksleri xususiyatlarini o'rganish hamda maqsadga muvofiq rangbaranglikdagi qo'zilar olish salmog'ini ko'paytirish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Qorako'l qo'zilarining tirik vazni tug'ilganda prujinali tarozida aniqlandi, yoshi kattargandan so'ng platformali elektron tarozida 0,1 kg gacha aniqlikdagi o'lchash yo'li bilan aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Qorako'l qo'ylarining tirik vazni ularning mahsuldorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning sog'lomligini va hayotchanligini belgilovchi muhim xususiyat hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichning imkon qadar yuqori darajasi, yani qo'ylarning semizlik darajasini bir maromda saqlash sog'lomlik, yuqori mahsuldorlik, konstitutsional mustahkamlik, hayotchanlik, olinadigan avlodlarning yaxshi o'sishi va rivojlanishini taminlaydi.

Tajriba natijalarida ko'rsatishicha, har xil tipdagi qorako'l qo'ylarining konstitutsiyasi va tirik og'irligi o'rtasida ma'lum darajada aloqadorlik bor ekanligi kuzatgan va mustahkam

konstitutsiya tipidagi qorako'l qo'ylarning tirik og'irligi, o'rtacha 2,46 kg va 7,97 kg.-ga dag'al va nozik konstitutsiya tipidagi qorako'l qo'ylarga nisbatan yuqori bo'lganligini tasdiqlaydi [4].

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, bizning tadqiqot ishlarimizdagi qo'zilar tirik vazni ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Qo'zilarining tirik vazni va uning yosh dinamikasida o'zgarishi

Rang-baranglik	n	Tajriba hayvonlari yoshi ($X \pm S_x$)			
		Tug'ilganda	4-4,5 oylik	12 oylik	18 oylik
Ochiq qamar	25	3,59±0,12	25,09±0,50*	31,60±0,73	36,83±0,96
Qizil qamar	25	3,49±0,08	25,71±0,84	30,60±0,58*	35,45±0,78*
Qora qamar	25	3,74±0,05*	26,18±0,95	31,29±0,74	35,91±0,85
O'rtacha, rangbaranglik bo'yicha	75	3,60±0,08	25,66±0,76*	31,16±0,68	36,06±0,86

*p<0,001


1-jadval ma'lumotlarida, yangi tug'ilgan davrda qora qamar qo'zilar tengdoshlariga nisbatan birmuncha yirikroq (3,74±0,05), ya'ni ochiq qamarga nisbatan, 0,15 kg.-ga va qizil qamarga nisbatan 0,25 kg.-ga ustunlik qildi. Ushbu tendensiya 4-4,5 oylik davriga kelib saqlanib qolgan holda, shunga mutanosib ravishda 1,09 va 0,47 kg.ga teng bo'ldi. Bunday rangbaranglik doirasidagi farqlanishlarni 12-oylik davrida ham kuzatish mumkin. Balog'at yoshiga etgan katta yoshdagi (18 oylik) qo'ylarda tirik vazni bo'yicha olingan o'zgarishlar saqlanib qoldi, ya'ni qizil qamar 35,45±0,78 kg.-ga, ochiq qamar 36,83±0,96 kg.-ga va qora qamar esa, 35,91±0,85 kg.-ga teng bo'ldi. O'rtacha, rangbaranglik bo'yicha bu ko'rsatkich 36,06±0,86 kg.-ni tashkil qildi.

Qorako'l qo'ylarining mutloq o'sish ko'rsatkichlari organizmning o'sish jadalligini o'rganishda muhim hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar qo'ylarning fiziologik holatini boshqarishda, semizlik darajasi to'g'risida fikr yuritishga, yaylovlar hosildorligiga baho berishda va nihoyat qo'shimcha oziqlantirishni tashkillashtirishdan xabardor qiladi.

Bizning olib borgan tadqiqot natijalari bo'yicha qamar rangbaranglik qo'ylarning turli variatsiyasida o'sish tezligi aniqlandi va bu ko'rsatkichlar quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarda tug'ilgandan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrda mutloq o'sish ko'rsatkichlari ochiq qamarda 21,55±0,17 kg.-ni tashkil qilgan bo'lsa, qizil qamarda 22,24±0,21kg. va qora qamar esa, 22,45±0,19kg.-ni tashkil qildi.

Ochiq qamar rangbaranglikdagi tajriba hayvonlari yosh dinamikasida mutloq o'sish ko'rsatkichlarini 100 % deb qabul qilinsa, qizil qamarda tug'ilgandan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrda 3,2 %-ga, qora qamarda 4,2 %-ga ustunlik qilgan. 4-4,5 oydan 12 oygacha davrdagi mutloq o'sish shunga mos ravishda -5,1 va -3,9 %-ga tendetsiya saqlanib qolgan. 12 oydan 18 oygacha bo'lgan davrda bu ko'rsatkich shunga mutanosib ravishda -7,3 va -11,7 %-ga farqlanishlar bo'ldi. Bunday ko'rsatkichlar kunlik o'sish ko'rsatkichlarida ham saqlanib qoldi va mutloq o'sim ko'rsatkichlarini to'lig'icha tasdiqlaydi. Qamar rangbaranglik variatsiyalari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi ma'lumotlari 1-rasmda umumlashtirilgan.



1-rasm. Qamar rangbaranglik variatsiyalari bo'yicha mutloq o'sim o'rtacha ko'rsatkichi

Olingan malumotlarni tahlil qilsak tug'ilgandan davridan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrigacha qo'zilar tirik vazni (22,08 kg.) jadal kechishi va 4-4,5 oydan 12 oygacha davrda bo'lsa (5,84 kg.), sekinlashishi kuzatiladi. 12 oylik davridan 18 oylik davrigacha mutloq o'sishning juda sekinlashishi (4,9 kg.) kuzatildi. Bizning fikrimizcha, tug'ilgan davrdan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrigacha qo'zilar tirik vazni o'sishining jadal kechishi sut emish davriga to'g'ri kelishi va keyingi yoshlarda sekinlashi ularning yaylov ozuqasiga o'tishi bilan izohlanadi.

Xulosa. Yosh dinamikasida qo'zilarning tirik vazni ko'rsatkichlarining o'zgarishi ular rang-barangligiga bog'liq holda, ochiq va qora qamar qizil qamarga nisbatan birmuncha yirikroq bo'lishi kuzatildi. Bizning fikrimizcha, bunday holatlarni ular orasidagi dag'al konstitutsiya tiplari ulushi birmuncha yuqoriroq bo'lganligi va bunday holat hayvonlar tirik vazniga o'z tasirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Бобокулов Н. А., Уримбетов А. А. «Турли этологик типларга мансуб қорақалпоқ сур қорақўл қўчқорларининг гўшт маҳсулдорлигига таъсири» «Chorvachilik va naslchilik ishi» jurnali №6 (17) 2020-yil 24-25 betlar.

2. Турганбаев Р. У. «Продуктивные и биологические особенности овец сур каракалпакского породного типа оригинальных расцветок урюк-гуль и камар» Автореферат Диссертации на соискание ученой степени кандидата сельскохозяйственных наук. Ташкент – 1993, с.23.

3. Юсупов С. Ю. ва бошқ. Қорақўлчиликда наслчилик ишини юритиш ва қўзиларни баҳолаш (бонитировка қилиш) бўйича қўлланма. Тошкент, 2015, 31 бет.

4. Казакбаев Б. ва бошқалар «Конституция типи ҳар хил қорақўл қўйларининг тирик вазни кўрсаткичлари» «Chorvachilik va naslchilik ishi» jurnali №6 (17) 2020-yil 33-34 betlar.